# UZBEKISTAN AIRWAYS

inflight magazine
01 | (117) | 2024 | Spring

silkavia




100 Yosh YEARS

## O'ZBEKISTON FUQARO AVIATSIYASI YUZ YOSHDA

## СТО ЛЕТ ГРАЖДАНСКОЙ АВИАЦИИ УЗБЕКИСТАНА

ASTANA MOTORS

BYD RASMIY DILERI

BYD

**BYD Astana Motors** – bu BYD brendining O'zbekistondagi rasmiy dilerlik tarmog'i.

O'zbekistonda 2023 yil mart oyidagi rasmiy brendning taqdimotidan so'ng, aynan Astana Motors O'zbekistondagi xalqaro BYD brendning birinchi dileri bo'lishiga musharraf bo'ldi.

**BYD Astana Motors** dilerlik tarmog'i - bu Toshkent shahridagi xalqaro standartlarga javob beradigan 5 ta zamonaviy dilerlik markazlari hamda Respublika hududagi Andijon, Buxoro, Urgench, Namangan va Qarshi shaharlaridagi 5 ta dilerlik markazlari.

Barcha dilerlik markazlari **4S** tizimi asosida ishlaydi: avtomobil savdosi, servis xizmat ko'rsatish, ehtiyot qismlar va qo'shimcha uskunalar savdosi, tahliliy ishlar.

Mehmonlarga qulaylik yaratish uchun **BYD Astana Motorsning** barcha dilerlik markazlarida kredit va sug'urta bo'limlari, so'm va valyuta bank kassalari, bolalar bilan birga kelgan mehmonlar uchun o'yin maydonchasi, kutubxona, Wi-Fi va albatta, sizni endigina damlangan xushbo'y choy yoki yangi maydalangan qahvalar bilan mehmon qilishadi.

Servis xizmatlari yuzasidan, tashrif buyuruvchilar maxsus o'rnatilgan monitorlar orqali qulay kutish xonasida xizmat ko'rsatish ishlarining olib borilishini kuzatishlari mumkin.

Barcha dilerlik markazlarida sinov parki **(TEST-DRIVE)** joylashgan.

**Astana Motors Akademiyasi** doirasida xaridorlar uchun rasmiy dilerlik markazlarida xarid qilingan markadagi elektr va gibrid avtomobillarini ekspluatatsiya qilish bo'yicha tanishtirish leksiyalari o'tkazilmoqda.

Siz test-drayv, xizmat ko'rsatish uchun ro'yxatdan o'tishingiz, qanday avtomobillar borligi va komplektatsiyasi haqida savollar berishingiz, O'zbekistonning barcha nuqtasidan turib, yagona **1322** (call-markaz) qisqa raqamiga qo'ng'iroq qilgan holda kredit va sug'urta xizmatlari bo'yicha ma'lumot olishingiz mumkin.

**O'ZBEKISTONDAGI BYD BRENDINING RASMIY RAVISHDA TAQDIM ETILGAN MODEL LINIYASI**

Ikkita komplektatsiyada va to'rtta rangda taqdim etilgan **BYD HAN** premium elektromobili – bu harakatlanish masofasi 715 km gacha bo'lgan innovatsion sedan.



**BYD SONG PLUS CHAMPION EV** krossoveri – bu 520 va 605 km harakatlanish masofasiga ega bo'lgan ikkita komplektatsiyada taqdim etilgan elektromobildir. Innovatsion funksionallik, zamonaviy dizayn, ranglar palitrasining keng tanlovi.



**BYD SONG PLUS CHAMPION DM-i** gibrid krossoveri - uslub, ko'rkamlik, qulaylik va xavfsizlik – aynan shunday epitetlar bilan izohlanadigan ushbu BYD NEW ENERGY avtomobili 1200 km dan ortiq masofani kombinatsiyalangan harakatlanishda osongina bosib o'tadi. Bitta elektr zaryadida yuriladigan masofa uzoqligi – 150 km gacha. Yoqilg'i sarfi 100 km ga 5 litr, 8,3 soniyada 100 ga chiqadi.



**BYD CHAZOR dinamik gibrid sedani.**
Kombinatsiyalangan harakatlanish masofasi 1100 km. Bitta elektr zaryadida yuriladigan masofa uzoqligi – 120 km gacha. Yoqilg'i sarfi 100 km ga 3,8 litrni tashkil etadi. Qulaylik, innovatsiya va tejamkorlik – bu avtomobilning asosiy sifatlaridan hisoblanadi. U 4 ta komplektatsiyada va 3 ta rangda taqdim qilingan.



**BRENDNING O'ZBEKISTONDAGI RASMIY DILERLIK MARKAZLARIDA XARID QILINGAN BARCHA ELEKTRO VA GIBRID AVTOMOBILLARGA 150 000 KM YOKI 6 YILLIK KAFOLAT BERILADI. BLADE BATTERY UCHUN 8 YIL KAFOLAT.**

**AVTOMOBILLARNI KREDITGA OLISH IMKONIYATI MAVJUD.**


AZUR
TERRACE GARDEN
FEEL THE MEDITERRANEAN!
+998 (71) 205-05-11 / +998 (90) 117-87-87
azurterrace.uz
Usta Olim passage, 5 / Usta Olim shoh ko'chasi, 5
Landmark: Sebzor, "Riviera" Mall / Mo'ljal: Sebzor, "Riviera" SM





CAEx

# Property *2024*

Sizni "CAEx Property 2024"
ko'chmas-mulk ko'rgazmasiga
taklif qilamiz.

*25 - 28 Aprel*

We invite you to an exciting real
estate exhibition "CAEx Property 2024"

*25 - 28 April*

+998 78 113 33 33

caexuzbekistan.com

CAEx Uzbekistan

CAEx

# Mebel & Decor *2024*

Uyingiz va biznesingiz uchun
nafis mebel va bezaklar
olamini kashf eting

*15 - 18 May*

Discover the world of exquisite
furniture and decorations for
your home and business

*15 - 18 May*

+998 78 113 33 33

caexuzbekistan.com

CAEx Uzbekistan








OSCAR
BOUTIQUE HOTEL

- **The Mayfair Pub Restorani.**
- **Lounge bar.**
- **Zamonaviy sport zali.**
- **SPA zonasi: Fin saunasi, hammom va massaj.**
- **Yopiq va ochiq basseyn.**
- **Premium xizmat koʻrsatish.**
- **Qoʻriqlanadigan avtoturargoh.**

- The Mayfair Pub Restaurant.
- Lounge Bar.
- Modern Gym.
- SPA area: Finnish sauna, hammam and massage.
- Indoor and outdoor pools.
- Premium class service.
- Secured parking.

oscar.boutique_hotel

OSCAR Boutique hotel

www.oscar-hotel.uz

**+998 78 150 11 55**

Toshkent sh., Haydar Aliyev koʻchasi, 148-150



# OSCAR BOUTIQUE HOTEL MUKAMMAL SAYOHAT UCHUN MUKAMMAL YECHIM

## OSCAR BOUTIQUE HOTEL IS THE PERFECT SOLUTION FOR A PERFECT TRIP





THE
MAYFAIR
PUB



Mualliflik menyusi, qulay atmosfera, chiroyli interyer va premium xizmat.
Oilaviy va romantik kechalar uchun eng zoʻr joy.

Author’s menu, cozy atmosphere, picturesque interior and premium service.
An ideal place for family and romantic evenings.

mayfairpub

+998 78 150 66 11

148-150, Heydar Aliyev str., Tashkent


Elegance is an attitude
JENNIFER LAWRENCE
MINI
DOLCEVITA
LONGINES
LONGINES BOUTIQUE
Mustaqillik shoh ko'chasi, 4B



Hilton
TASHKENT CITY

# Hilton Tashkent City
## mehmonxonamizda dam oling

Zamonaviy mehmonxona turli toifadagi 258 ta keng xonalarni taklif etadi, ular orasida standart va ijrochi xonalari, burchakli lyuks va 8 ta prezidentlik xonalari mavjud Frantsuz, Ingliz, Arab va klassik uslublarda bezatilgan.
Executive va Suite xonalarida qolishning afzalligi kun davomida bufet nonushtasi, gazaklar, ichimliklarni va Executive Lounge-ga kirishni o'z ichiga olgan.

The modern hotel offers 258 spacious rooms of various categories, including standard and executive rooms, corner suites and 8 presidential suites decorated in French, English, Arabic and classic styles.
The benefit of staying in Executive and Suite rooms is access to the Executive Lounge, which includes a buffet breakfast, snacks and drinks throughout the day.

The Presidential Suite covers over 250 square meters and includes a living room, dining area and kitchen. All rooms have mesmerizing city views. The unique solution of the designers and architects of the project is the modern glass facade of the hotel, through which natural light penetrates into all the interior rooms, which creates a hospitable atmosphere conducive to pleasant relaxation.













Hilton

WALDORF ASTORIA · LXR · CONRAD · canopy · Signia by Hilton · Hilton · CURIO COLLECTION · DOUBLETREE · TAPESTRY COLLECTION · EMBASSY SUITES · TEMPO · MOTTO · Hilton Garden Inn · Hampton · tru · HOMEWOOD SUITES · HOME2 SUITES · Hilton GRAND VACATIONS

Hilton HONORS

# Mundarija

Contents | Содержание


**O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi yuz yoshda**
Сто лет гражданской авиации Узбекистана — 14

**2023-yil yakunlari raqamlarda**
Results of 2023 in Numbers
Итоги 2023 года в цифрах — 30

**Silk Avia bilan O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qilling**
Travel Around Uzbekistan With Silk Avia
Путешествуйте по Узбекистану с Silk Avia — 32

**Aviakompaniya qanotlarini tutib turgan ayollar**
Женщины, поддерживающие крылья авиакомпании — 34

**Bortdagi xavfsizlik haqidagi mo‘jiza**
Magic About Safety on Board
Волшебно о безопасности на борту — 38

**Chipta masofasida**
На расстоянии билета — 46

**Zafar Hoshimov va “Ryoanji bog‘ining o‘n besh toshi”**
Зафар Хашимов и «Пятнадцать камней сада Рёандзи» — 52

**Yelkasida xurjun bilan O‘zbekiston bo‘ylab**
Exploring Uzbekistan by Backpacking
Исследуя Узбекистан с рюкзаком за спиной — 62


EST. 2023
Afsona
by legend
EVERY DROP IS LEGENDARY
LEGEND
PREMIUM MINERAL WATER
GAZLANMAGAN
0,5 L
info@legendwater.uz
+998 95 170 20 23

# Mundarija

Contents | Содержание


**Pxuketga sayohat**
**U yerda qanday dam olish mumkin?**
В Пхукет и обратно. Как там отдыхать? 68

**Diana Sadikova. "An artist cannot say how brilliant she is"**
Диана Садыкова. «Художник не может говорить, какой он гениальный» 78

**Zaynab's Saber That Conquered Asia**
Сабля Зайнаб, покорившая Азию 84

**Turquoise Necklace of Lakes**
Бирюзовое ожерелье озёр 90

**Music is Like Time Travel**
Музыка как путешествие во времени 96

**From Chorsu to Paris: The Path of Nadira Abdurakhmanova**
От Чорсу до Парижа: путь Надиры Абдурахмановой 102

**Dragon in the Art of Uzbekistan: From Image to Meaning**
Дракон в искусстве Узбекистана: от образа к смыслу 108

**Bolalar uchun**
For Kids
Детская страница 118

**Yo'lovchilar uchun ma'lumot**
Information for Passengers
Информация для пассажиров 122



UZBEKISTAN airways

TAHRIRIYAT

**Shuxrat Xudaykulov**
Tahririyat kengashi raisi

**Rimma Kuzmina**
Nashr uchun ma'sul

**Bakhtiyor Nasimov**
Ustoz muharrir

**Sultana-begim Makhmud-zade**
Muharrir

**Abror Abduvaitov**
Muharrir-tarjimon

**Barno Alibaeva**
Art Direktor

**Mualliflar:**
Abror Abduvaitov, Alice Spencer & Ross Macgregor, Bakhtiyor Nasimov, Elmira Gul, Jamoliddin Hamdamov, Sultana-begim Makhmud-zade, Matluba Kulieva, Nargiza Alikulova, Nigora Yo'ldosheva, Raisa Doroshina, Ross Macgregor, Shahina Xayrullaeva and Sharof Egamberdiev

**Fotoredaktor:**
Abdulaziz Xalilov

**Foto:**
Almurat Madaminov, Alice Spencer & Ross Macgregor, Anvar Ilyasov, Arlan Baykhodjaev, Barno Alibaeva, Doniyor Rasulov, Laura Sadikova, Liliya Nikolenko, Mukhiddin A Lee, Natasha Bezrukikh, Raisa Doroshina, Rustambek Sharipov, Semyon Beznosov, Sergey Gribanov, Tamila Bismakh, Tamila Valiulina va Sharof Egamberdiyev

**Musahhihlar, o'zbek tili:**
Ozoda Azimova va Jamoliddin Hamdamov

**Proofreader, English language:**
Luke Carter

**Корректор, русский язык:**
Юлиана Шопен

**Reklama / Ads Manager**
Bahodir Imamjanov
+998 78 140-45-20,
+998 78 140-45-21
E-mail: pr@uzairways.com

*O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida (O'zMAA) 03.01.2007-yilda 0115 raqami bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.*

*Tahririyat barcha turdagi reklamalarda e'lon qilingan ma'lumotlarning mazmuni va to'g'riligi uchun javobgar emas.*

*1993-yildan beri nashr etiladi.*

*«KOLORPAK» MChJ bosmaxonasida chop etilgan. Buyurtma № 259. Adadi 21 000. Manzili: Toshkent sh., Yangishahar ko'chasi, 1A uy.*


imzo
THERMO 105
ENGELBERG
DUNYOGA YANGICHA NIGOH
imzo.uz
71 207 77 77

# Bahor
## eng go'zal fasl

# Spring Is the Most Wonderful Season

## Весна – самая чудесная пора

Bahorda hamma narsani boshqacha, o'ziga xos qabul qilamiz. Quyosh yorqinroq nur taratayotgandek, osmon betakror musaffolik kasb etayotgandek tuyuladi, birdaniga havoni bulut qoplab, sharros jala quysa ham, bunday yomg'ir uzoq davom etmasligi, u iliq va tanaga orom baxsh etishini bilib, miyig'imizda jilmayib qo'yamiz va buni bahor havosiga yo'yamiz. O'zbekiston aholisi uchun bahor – yilning o'ziga xos fasli, davlat miqyosida nishonlanadigan bayramdan uchtasi ana shu paytga to'g'ri keladi. Mamlakat aholisi uchun ularning har biri o'ziga xos qadrli va go'zal.

Spring makes a person take things in a somewhat different, special way. The sun seems to shine more brightly, the sky becomes richly blue and bottomless and even a sudden downpour evokes a happy smile on one's face: we know the spring rain is always short, warm and wholesome. Spring in Uzbekistan is a very special time with a total of three national holidays taking place this season. Each of them is particularly dear to the Uzbek people.

Весной многое воспринимается иначе, по-особенному. Кажется, что и солнце светит ярче, и небо приобретает неповторимую весеннюю синюю бездонность, а если даже и зарядит вдруг ливень, то мы с улыбкой говорим: «весенний...», подразумевая, что это ненадолго и дождь будет тёплым и благодатным.
Весна для жителей Узбекистана – особое время года, на которое приходится сразу три государственных праздника. Для жителей страны каждый из них по-особенному прекрасен и дорог.

Birinchi bahor bayrami 8-mart – Xalqaro xotin-qizlar kuni. Onalar, buvijonlar, opa-singillar, qizlar, rafiqalar, dugonalar, sinfdoshlar, kursdoshlar va hamkasblarga atalgan eng go‘zal so‘zlarni qayta-qayta aytish uchun ajoyib imkoniyat.

Navro‘z – 21-mart bahorgi tengkunlikda nishonlanadigan eng qadimiy bayram. Butun mamlakat bo‘ylab sayillar boshlanadi, mahallalarda qo‘ni-qo‘shnilar birgalashib har biri o'z tarixi va ahamiyatiga ega bo‘lgan turli-tuman milliy bahoriy taomlar tayyorlashadi. Mamlakat mustaqillikka erishishi bilan YUNESKO nomoddiy merosi ro‘yxatiga kiritilgan Navro‘zni nishonlash yangicha ahamiyat kasb etib, O‘zbekiston xalqini birlashtiradigan, do‘stlik va birdamlik bayramiga aylandi.

Muhim sanalar kalendarida 9-mayda nishonlanadigan Xotira va qadrlash kuni alohida o‘rin tutadi. Toshkentning Xotira maydonlarida, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyat va tuman markazlarida shu kuni hozirgi tinch hayotimiz va musaffo osmonimiz uchun jang maydonlarida shahid bo‘lganlar xotirlab esga olinadi.

*Hurmatli mushtariy, agar siz hozir O'zbekistonga uchib ketayotgan bo‘lsangiz, bularning barchasini o‘zingiz ko‘rib, guvoh bo‘lishingiz mumkin. O‘zbekiston bahori yorqin, quyoshga boy, mazmunli va g‘oyatda go‘zal fasl.*

***O‘zbekistonga xush kelibsiz!***

The first spring holiday is the International Women's Day celebrated on 8 March. This day gives men a wonderful chance to express their love to their mothers, grandmothers, sisters, daughters, wives, girlfriends and female classmates, teammates and colleagues and remind them how inimitably beautiful they all are.

Navruz is an ancient holiday, which occurs on the Spring Equinox, on 21 March. People across the country celebrate the holiday outdoors, walking in the streets and cooking collectively in their mahallas traditional spring dishes, each of which has its history and meaning. After the country's independence Navruz, currently included in UNESCO's Intangible Cultural Heritage List, acquired a new meaning and became the day of unification, friendship and fraternity for all the nations living in Uzbekistan.

The Day of Memory and Honor on 9 May occupies a special place among other remarkable dates. On this day people come to the Squares of Memory in Tashkent and other administrative centers throughout Uzbekistan and the Republic of Karakalpakstan to commemorate those who have died in battlefields for the sake of the peaceful life and serene sky we are currently enjoying.

*Dear reader! If you are now flying to Uzbekistan, you will have a chance to see it all with your own eyes. Spring in Uzbekistan is sunny, bright, colorful and wonderfully beautiful.*

***O‘zbekistonga xush kelibsiz!***

Первый весенний праздник, Международный женский день, отмечается 8 марта. Чудесная возможность, чтобы вновь и вновь звучали прекрасные слова о любви, красоте и неповторимости в адрес матерей, бабушек, сестёр, дочерей, жён, подруг, одноклассниц, сокурсниц и коллег.

Навруз, самый древний праздник, отмечается в день весеннего равноденствия 21 марта. По всей стране проходят народные гулянья, в махаллях совместно готовят национальные весенние блюда, каждое из которых имеет свою историю и значение. С обретением независимости празднование Навруза, включённого в список нематериального культурного наследия ЮНЕСКО, приобрело новое звучание и стало днём единения, дружбы и братства всех народов, населяющих Узбекистан.

Особое место в календаре знаменательных дат занимает День памяти и почестей, который отмечается 9 мая. На площадях Памяти в Ташкенте, в Республике Каракалпакстан, в областных и районных центрах в этот светлый праздник воздают дань памяти тем, кто пал на полях сражений во имя нынешней мирной жизни и чистого неба.

*Уважаемый читатель, если вы сейчас летите в Узбекистан, то у вас есть возможность увидеть всё своими глазами. Весна в Узбекистане солнечная, яркая, насыщенная и безумно прекрасная.*

***O‘zbekistonga xush kelibsiz!***




# O‘ZBEKISTON FUQARO AVIATSIYASI YUZ YOSHDA

## Сто лет гражданской авиации Узбекистана

***Bu yil mamlakatimizda muhim voqea, ya'ni, fuqaro aviatsiyasining 100 yilligi nishonlanmoqda. Butun bir asr davomida o'zbek aviatorlari transportning eng muhim va yuqori texnologiyali tarmoqlaridan birini rivojlantirdilar. Ushbu soha shakllanishining fidokorlari bo'lgan insonlar tufayli osmon yaqin, parvozlar esa odatiy holga aylandi.***

Mamlakat rahbariyati ko'magida Uzbekistan Airways sohani jadal takomillashtirish va yangi marralarga erishish, o'tgan asr avlodlari qo'lga kiritgan yutuqlarni yanada oshirishda davom etmoqda. Bugungi kunda havo kemalari ishonchli, qulay va eng tezkor transport turi hisoblanadi.

***В этом году страна отмечает знаковое событие – 100-летие гражданской авиации. На протяжении целого века узбекские авиаторы развивали одну из важнейших и высокотехнологичных отраслей транспорта. Благодаря людям, стоявшим у истоков формирования этой сферы, небо стало ближе, а перелёты – обыденностью.***

При поддержке руководства страны Uzbekistan Airways динамично совершенствует отрасль и поднимает её на новые высоты, приумножая достижения поколений прошлого века. Сегодня самолёты – надёжный, удобный и самый быстрый вид транспорта.




Fuqaro aviatsiyasi rivojiga hissa qo'shayotgan va o'z hayotini osmonsiz tasavvur qila olmaydigan barchani ushbu muhim sana bilan tabriklaymiz. Parvozlarning qulayligi va xavfsizligini ta'minlash, yo'lovchilar hamda yuklarni o'z vaqtida yetkazib berish uchun mas'ul mutaxassislarga o'z minnatdorchiligimizni bildiramiz. Sizga sihat-salomatlik, baxt, farovonlik va osmonda ham, yerda ham yorqin g'alabalar tilaymiz!

Поздравляем со знаменательной датой всех, кто вносит вклад в развитие гражданской авиации и не может представить свою жизнь без неба. Выражаем слова благодарности специалистам, от которых зависит обеспечение комфорта и безопасности полётов, своевременная доставка пассажиров и грузов. Желаем крепкого здоровья, счастья, благополучия и ярких побед – как в небе, так и на земле!

# Osmonga qo'yilgan *ilk* qadamlar





## 1924-yil 12-may

“Junkers R-13” havo kemasida Toshkent – Pishpek – Olmaota yo'nalishi bo'yicha birinchi yo'lovchi qatnovi amalga oshirildi.

O'rta Osiyoning bepoyon kengliklarida havo kemalari yo'lovchilarni, dori-darmonlarni yetkazib berish va insonlar hayotini saqlab qolish uchun yagona vosita bo'lgan.

## 1924-yilning 12-noyabr

kuni Uzbekistan Airways Technics korxonasi uchun poydevor vazifasini o‘tagan aviatexnikalarni ta'mirlash ustaxonalari ochildi.

1927-yil. Toshkent-Qobul yo'nalishi bo'yicha ilk xalqaro aviaqatnov yo'lga qo'yildi.

## 1930-yil 8-avgustida

Toshkent bilan Moskva birinchi marta havo ko'prigi orqali bog'landi. Moskva-Toshkent-Moskva yo'nalishi bo'yicha birinchi parvoz K-4 avialaynerida amalga oshirildi.

1930-yilda qishloq xo'jaligida ham aviatsiyadan faol foydalana boshlandi.

1932-yilda O‘rta Osiyo fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi tuzildi. Xuddi shu yili Toshkent aeroporti qurilishi boshlandi.



# Первые шаги в небо






**12 мая 1924 года**
Выполнен первый пассажирский рейс по маршруту Ташкент – Пишпек – Алма-Ата на самолёте «Юнкерс Р-13».

На бескрайних просторах Центральной Азии самолёты были единственным средством доставки пассажиров, медикаментов и средством спасения человеческих жизней.

**12 ноября 1924 года** были открыты мастерские по ремонту авиатехники, прообразы предприятия Uzbekistan Airways Technics.

1927 год. Открыта первая международная линия Ташкент-Кабул.

**8 августа 1930 года** воздушный мост впервые связал Ташкент с Москвой. Первый рейс Москва – Ташкент – Москва был осуществлён на самолёте К-4. В 1930 году авиация начала активно использоваться в сельском хозяйстве.
В 1932 году создано Среднеазиатское управление гражданской авиации. В этом же году началось строительство Ташкентского аэропорта.

# Urush va urushdan keyingi yillar

Ikkinchi jahon urushi yillarida frontga O'zbekistonda ishlab chiqarilgan 2258 havo kemasi va 2500 aviator yuborilgan. Respublikada birinchi hududiy milliy maktabi tashkil etilib, ularda uchuvchilar tarkibi va havo kemalariga texnik xizmat ko‘rsatish bo'yicha mutaxassislar tayyorlangan.



## 1942-yilning noyabr oyida

Toshkent aviatsiya zavodida ilk Li-2 harbiy havo kemasi, 1943-yilda esa An-12 ishlab chiqarildi.

1945-yil 9-mayda o‘zbek uchuvchisi Abdusamad Taymetov Li-2 avialayneri ekipaji tarkibida Berlindan fashist Germaniyasining so‘zsiz taslim bo‘lganligi to‘g‘risidagi aktni hamda G‘alaba bayrog‘ini Moskvaga olib keldi.

1948-yilda esa Toshkentdan Moskva, Leningrad (Sankt-Peterburg), Irkutsk, Yakutsk, Novosibirsk, Olma-Ota va Frunze (Bishkek) shaharlariga muntazam parvozlar amalga oshirila boshlandi.








# Военные и послевоенные годы



В период Второй мировой войны на фронт были направлены 2 258 самолетов, произведённых в Узбекистане, и 2 500 авиаторов. В республике была создана первая краевая национальная школа пилотов, где готовили лётный состав, специалистов по обслуживанию самолётов.

**В ноябре 1942 года** Ташкентский авиационный завод выпустил первый военно-транспортный самолёт Ли-2, а в 1943 году – Ан-12.

9 мая 1945 года узбекистанский пилот Абдусамад Тайметов в составе экипажа самолёта Ли-2 доставил в Москву из Берлина акт о безоговорочной капитуляции фашистской Германии, Знамя Победы, трофейные стяги и штандарты.

В 1948 году из Ташкента осуществлялись регулярные рейсы в Москву, Ленинград (Санкт-Петербург), Иркутск, Якутск, Новосибирск, Алма-Ату (Алматы) и Фрунзе (Бишкек).



# Havo floti va parvozlar xaritasining kengayishi









## 1956-yilning

### 18-aprel

kuni Toshkent aeroportida O‘zbekistonda birinchi Mi-4 vertolyoti parvozi bo'lib o‘tdi.

1950-yillarning oxiridan boshlab o‘zbek aviatorlari Il-12, Il-14 havo kemalaridan foydalana boshladilar.

1960-yillarda O‘zbekiston fuqaro aviatsiyasi boshqarmasi Il-18, An-24, Yak-40, Tu-134, Tu-154 havo kemalarini qabul qilib oldi. 1958-yilda “Toshkent” aeroporti birinchi toifali xalqaro aeroport maqomini oldi.



# Расширение воздушного флота и карты полетов







## 18 апреля

# 1956 года

в Ташкентском аэропорту состоялся взлёт первого в Узбекистане вертолёта Ми-4.

С конца 1950-х узбекские авиаторы начали эксплуатировать Ил-12, Ил-14.

В 1960-х годах в Узбекское Управление гражданской авиации поступили самолёты Ил-18, Ан-24, Як-40, Ту-134, Ту-154.
В 1958 году аэропорт «Ташкент» получил статус международного аэропорта первого класса.




# 1970-yillarda

poytaxt Chelyabinsk, Simferopol, Boltiqbo‘yi mamlakatlari shaharlari hamda Kavkaz va Uzoq Sharq bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri havo qatnovi orqali bog‘landi.

## 1970-yilda

Samarqand shahrining 2500 yilligiga yangi aerovokzal qurib bitkazildi. 1973-yilning 5-mayida Chkalov nomidagi Toshkent aviatsiya birlashmasida o‘sha davr uchun rekord darajadagi – yuk ko‘tarish quvvati 40 tonnadan ortiq bo‘lgan birinchi Il-76 yuk tashuvchi superlaynerni ishlab chiqarildi.



## 1976-yil aprel

oyida Toshkentda yangi zamonaviy aerovokzal majmuasi foydalanishga topshirildi. Viloyat markazlarida esa navigatsiya va aloqa vositalari bilan jihozlangan yangi aeroportlar qurilishi boshlandi.








# В 1970-х годах

столица связывается прямым воздушным сообщением с Челябинском, Симферополем, городами стран Балтии, Кавказа и Дальнего Востока.

**В 1970 году** к 2500-летию города Самарканда построен новый аэровокзал. 5 мая 1973 года Ташкентское авиастроительное объединение имени Чкалова выпустило первый грузовой суперлайнер Ил-76 с рекордной для того времени грузоподъёмностью: более 40 тонн.

**В апреле 1976-го** в Ташкенте введён в эксплуатацию новый современный аэровокзальный комплекс. В областных центрах начато строительство новых аэропортов, оснащенных средствами навигации и связи.







## 1978-1985-yillarga

kelib Toshkent aeroportiga kelib qo'nadigan va uchib ketadigan aviaqatnovlar soni kuniga 500 dan ortiqni tashkil qilgan.

## 1982-yil 26-dekabrida

poytaxt aeroporti birinchi marta 350 nafar yo'lovchini tashishga qodir keng fyuzelyajli ulkan Il-86 avialaynerini qabul qildi.





В период с **1978 по 1985 годы**
Ташкентский аэропорт принимал и выпускал более 500 рейсов в сутки.

**26 декабря 1982 года**
столичный аэропорт впервые принял широкофюзеляжный лайнер-гигант Ил-86, способный поднять на борт 350 пассажиров.







# Mustaqillik yillarida

## 1992-yilning 28-yanvarida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni bilan “O‘zbekiston havo yo‘llari” – “Uzbekistan Airways” Milliy aviakompaniyasi tashkil etildi va o‘sha yili HY kodi ostida Il-62 havo kemasida Londonga ilk xalqaro parvoz amalga oshirildi.

1992-yil 12-noyabrida mamlakat Xalqaro fuqaro aviatsiyasi tashkilotiga (ICAO) a’zo bo‘ldi.

1993-yil 7-mayda Havo kodeksi qabul qilindi.






1993-yil iyun oyida aviakompaniya Airbus kompaniyasidan birinchi Airbus A-310 havo kemasini qabul qilib oldi va uch yildan so'ng Boeing milliy aviatashuvchiga ilk Boeing 767 avialaynerini yetkazib berdi. Havo kemasi parkini qayta jihozlash va unifikatsiya qilish boshlandi.

1995-yil oxirida Atlantika okeani uzra Nyu-Yorkka birinchi aviaqatnov bajarildi. Parvoz yoqilg‘i quyish uchun to‘xtab o‘tish bilan amalga oshirildi. AQSHga muntazam aviaqatnovlar yo‘lga qo‘yildi.

1997-yilda aviata’mirlash korxonasi qoshida G‘arb uskunalariga texnik xizmat ko'rsatish markazi ochildi.

2007-2008 yillarda Boeing 787-Dreamliner va A-320-200 havo kemalarini yetkazib berish bo‘yicha shartnomalar imzolandi. 2017-yilning 27-iyul kuni Uzbekistan Airways tarixda ilk bor Boeing 787 Dreamliner havo kemasida Toshkent – Nyu-York – Toshkent yo‘nalishi bo‘yicha birinchi to‘g‘ridan-to‘g‘ri parvozni amalga oshirdi.







## 2018-yilda

“O‘zbekiston havo yo‘llari” milliy aviakompaniyasi “Uzbekistan Airways” AJ etib qayta tashkil etildi.

# Годы Независимости



## 28 января 1992 года

указом Президента Республики Узбекистан создана Национальная авиакомпания «Узбекистон хаво йуллари» – «Uzbekistan Airways» и в этом же году под кодом HY был выполнен первый международный рейс в Лондон на самолёте Ил-62.

12 ноября 1992 года страна присоединилась к Международной организации гражданской авиации ИКАО. 7 мая 1993 года был принят Воздушный кодекс.

В июне 1993 года авиакомпания получила первый самолёт компании Airbus – А-310, а через три года компания Boeing поставила для национального авиаперевозчика первый Boeing 767. Началось переоснащение и унификация самолётного парка.

В конце 1995 года был выполнен первый рейс через Атлантический океан в Нью-Йорк с промежуточной посадкой на дозаправку. Начались регулярные полёты в США.

В 1997 году на базе авиаремонтного предприятия открыт Центр по техническому обслуживанию западной техники.
В 2007–2008 годах подписаны контракты на поставку Boeing 787-Dreamliner и А-320-200.

27 июля 2017 года впервые в истории Uzbekistan Airways осуществлён первый прямой полёт по маршруту Ташкент – Нью-Йорк – Ташкент.







## В 2018 году

НАК «Узбекистон хаво йуллари» была реорганизована в АО «Uzbekistan Airways».

# O‘zbekistonning zamonaviy aviatsiyasi




Mamlakatimiz aviatsiya sanoatini rivojlantirishda Uzbekistan Airways muhim o‘rin tutadi. Bu kuchli, yuqori texnologiyali va jadal rivojlanayotgan kompaniya, uning aviaparkida xorijda ishlab chiqarilgan o‘nlab havo kemalari, L-410 va Pilatus PC-24 biznes-jetidan tortib, Airbus A320/321neo hamda uzoq masofaga parvoz qiluvchi Boeing 787 Dreamlinerigacha mavjud. Aviakompaniya shuningdek, o‘zining O‘quv-mashq markazi, “Uzbekistan Airways Technics”, “Catering” taom yetkazib berish korxonasiga ega. Shu bilan birga, zamonaviy vertolyotlarga ega “Uzbekistan Helicopters” hamda mintaqaviy “Silk Avia” aviakompaniyasi ham Uzbekistan Airways tarkibida faoliyat yuritmoqda.






Hozirda respublikada bir qator aviakompaniyalar faoliyat yuritmoqda, biroq Uzbekistan Airways mamlakat aviatsiyasida yetakchilikni saqlab qolmoqda. Aviakompaniya havo kemalari dunyoning 50 dan ortiq shaharlariga parvoz qiladi va 2023-yilda 5 milliondan ortiq yo‘lovchi o‘z manziliga yetkazildi.

Uzbekistan Airways yangi yo‘nalishlarni yo‘lga qo‘yish, havo kemalari parkini to‘ldirish va xalqaro aviatashuvlar bozoridagi o‘rnini mustahkamlash orqali muvaffaqiyatli rivojlanishda davom etmoqda.

Biroq eng asosiy, bebaho boylik – mamlakatimiz aviatsiya tarixini yaratishda o‘z hissasini qo‘shishda davom etayotgan insonlar va Uzbekistan Airways aviatsiya oilasidir.





# Современная авиация Узбекистана

Сегодня Uzbekistan Airways играет ключевую роль в развитии авиаотрасли государства. Это мощная, высокотехнологичная и динамично развивающаяся компания, в парке которой насчитываются десятки самолётов западного производства: от L-410 и бизнес-джета Pilatus PC-24 до Airbus A320/321neo и дальнемагистральных Boeing 787 Dreamliner, собственный учебно-тренировочный центр, ООО «Uzbekistan Airways Technics», предприятие питания Catering и ООО «Uzbekistan Helicopters» с современными вертолётами и региональной авиакомпанией «Silk Avia».

В настоящее время в республике осуществляет свою деятельность целый ряд авиакомпаний, но лидирующую позицию продолжает занимать Uzbekistan Airways. Самолеты компании летают в более чем 50 городов мира, а количество перевезённых пассажиров в 2023 году превысило 5 миллионов человек.








Uzbekistan Airways уверенно продолжает свое успешное развитие, открывая новые направления, пополняя парк воздушных судов и укрепляя свои позиции на международном рынке авиаперевозок.

Но главное достояние – люди, и авиационная семья Uzbekistan Airways служит ключевым активом компании, которые продолжают делать историю авиации нашего государства.

# 2023-YIL YAKUNLARI RAQAMLARDA

Results of 2023 in Numbers | Итоги 2023 года в цифрах

**5 000 000+**

**Yoʻlovchilar manziliga yetkazilgan.**
Passengers were transported.
Перевезённых пассажиров.



**32 000+**

**Aviaqatnovlar amalga oshirilgan.**
Flights were carried out.
Выполненных рейсов.

**50 000+**

**Tonna yuk tashilgan.**
Tons of cargo were transported.
Тонн перевезенного груза.



**3 500 000+**

**Bort taomi “Catering” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan.**

In-flight meals were prepared by Catering LLC.

Единиц бортового питания произведено ООО «Catering».

**140+**



**Uzbekistan Airways Technics aviakorxonasi tomonidan havo kemalariga turli murakkablikdagi texnik xizmat koʻrsatilgan.**

Maintenance works on aircraft of varying complexity were provided by Uzbekistan Airways Technics.

Работ по техническому обслуживанию воздушных судов различной сложности было проведено авиапредприятием Uzbekistan Airways Technics.

**Yangi yo‘nalishlar ochildi:**
New routes:
Новых направлений:
**11**






**10**

**Aviaparkka havo kemalari qo‘shildi.**

Aircraft added to the fleet.

Воздушных судов пополнили авиапарк.

- 5 Airbus 320neo
- 2 LET L-410
- 3 ATR 72–600

**850+**

**300+**

**Bortkuzatuvchilar va uchuvchilar aviakompaniyaning O‘quv-mashg‘ulot markazida kasbiy tayyorgarlik, qayta tayyorlashdan o‘tishdi, malakalarini oshirishdi.**

Flight attendants and pilots underwent professional training, retraining, and advanced training at the airline's Training Center.

Прошли профессиональное обучение, переобучение и повышение квалификации в Учебно-тренировочном центре авиакомпании.






**5**

**Shahar aviakompaniya rahbariyati va viloyatlar aholisi o‘rtasida ochiq muloqot maydoni bo‘lib xizmat qildi.**

Cities acted as platforms for open dialogue between the airline management and residents of the regions.

Городов выступили площадками для открытого диалога между руководством авиакомпании и жителями регионов.






# SILK AVIA BILAN O‘ZBEKISTON BO‘YLAB SAYOHAT QILING

## Travel Around Uzbekistan With Silk Avia

### Путешествуйте по Узбекистану с Silk Avia



Silk Avia – O‘zbekistonning ilk mahalliy aviakompaniyasi bo‘lib, 2021-yilning 6-iyulida mamlakat ichida loukost aviaqatnovlarni amalga oshirish maqsadida tashkil etilgan. Livreyasida milliy xon-atlas tasviri tushirilgan havo kemalari har kuni yuzlab yo‘lovchilarni respublikaning bir nuqtasidan boshqasiga eltib qo‘yadi.

2023-yilda Silk Avia o‘z brendini saqlab qolgan holda* “Uzbekistan Airways” AJ tarkibiga kiruvchi Uzbekistan Helicopters** boshqaruviga o‘tdi.

Uning aviaparkida beshta ATR 72-600 rusumidagi o‘rta masofali yo‘lovchi tashuvchi havo kemalari bo‘lib, 70 tagacha yo‘lovchini sig‘dira oladi. Ayni paytda Silk Avia O‘zbekistonning o‘n bitta – Toshkent, Buxoro, Qarshi, Navoiy, Namangan, Samarqand, Termiz, Farg‘ona va Urganch shaharlarini bir biri bilan bog‘laydi.

Uzbekistan Helicopters yangi sho‘ba korxonasini rivojlantirish strategiyasini amalga oshirish doirasida ATR 72-600 rusumli havo kemalari sonini ko‘paytirib, mintaqaviy parvozlar geografiyasini kengaytiradi va havo qatnovlari sonini oshiradi.

**O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2023-yil 16-oktabrdagi “Aviatsiya faoliyatini samarali tashkil etishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-337-sonli qarori.*

***Uzbekistan Helicopters – Uzbekistan Airways aviakompaniyasining tarkibiy bo‘linmasi hisoblanadi. Uning aviaparkida Mi-8MTV-1, H125 va H130 vertolyotlari va LET L-410 turbovintli havo kemalari mavjud.*

Silk Avia is the first regional airline of Uzbekistan, created on July 6, 2021 to provide low-cost air transportation within the country. Aircrafts with the image of the national Khan-Atlas transport hundreds of passengers daily from one point of the republic to another.

In 2023, Silk Avia, while maintaining the brand, transferred* to the management of Uzbekistan Helicopters**, part of the national airline.

The fleet includes five ATR 72-600 medium-haul passenger aircraft with a capacity of up to 70 passengers. Currently, Silk Avia connects eleven cities of Uzbekistan: Tashkent, Bukhara, Karshi, Navoi, Namangan, Samarkand, Termez, Fergana, and Urgench.

As part of the implementation of the development strategy of the new subsidiary, Uzbekistan Helicopters will increase the number of ATR 72-600 aircraft, expand the geography of regional flights, and increase the number of air services.

**Resolution of the President of Uzbekistan Shavkat Mirziyoyev of October 16, 2023 PP-337 “On additional measures for effective organization of aviation activity”.*

***Uzbekistan Helicopters is a structural division of Uzbekistan Airways. It has a fleet of Mi-8MTV-1, H125, and H130 helicopters and LET L-410 turboprop aircraft.*

Silk Avia – первая региональная авиакомпания Узбекистана, созданная 6 июля 2021 года для осуществления лоукост-перевозок внутри страны. Воздушные судна с изображением национального хан-атласа на ливрее ежедневно перевозят сотни пассажиров из одной точки республики в другую.

В 2023 году Silk Avia с сохранением бренда перешла* под управление Uzbekistan Helicopters**, входящей в состав национальной авиакомпании.

В авиапарке насчитывается пять среднемагистральных пассажирских самолетов ATR 72-600 с вместимостью до 70 пассажиров. В настоящее время Silk Avia соединяет одиннадцать городов Узбекистана: Ташкент, Бухару, Карши, Навои, Наманган, Самарканд, Термез, Фергану и Ургенч.

В рамках реализации стратегии развития новой дочерней компании Uzbekistan Helicopters увеличит количество воздушных судов ATR 72−600, расширит географию региональных полетов и увеличит количество авиасообщений.

**Постановление Президента Узбекистана Шавката Мирзиёева от 16 октября 2023 года ПП-337 «О дополнительных мерах по эффективной организации авиационной деятельности».*

***Uzbekistan Helicopters – структурное подразделение авиакомпании Uzbekistan Airways. Располагает парком вертолетов типа Ми-8МТВ-1, Н125 и Н130 и турбовинтовыми самолетами LET L-410.*

***Фото: Рустам Маннанов***
*Photo by Rustam Mannanov*

# AVIAKOMPANIYA QANOTLARINI TUTIB TURGAN AYOLLAR

Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan aviakompaniya xodimalari ezgu tilaklarini bildirishib, kasblarining xususiyatlari haqida gapirib berishdi.




# ЖЕНЩИНЫ, ПОДДЕРЖИВАЮЩИЕ КРЫЛЬЯ АВИАКОМПАНИИ

В честь Международного женского дня сотрудницы авиакомпании передают добрые пожелания и рассказывают об особенностях своей работы.



## Zulfiya Ibragimova
bortkuzatuvchi

## Зульфия Ибрагимова
бортпроводник

**Bortkuzatuvchilar xizmati departamenti** | **Департамент службы бортпроводников**

Ishim bu butun borlig‘im. Bir marta parvoz nima ekanligini his qilib ko‘rgach, bu tuyg‘usiz yashash juda qiyin. “Universal askar” tushunchasini eshitganmisiz? Bu biz haqimizda. Har bir bortkuzatuvchi bu qutqaruvchi, shifokor, psixolog, tilshunos, boshqaruvchi va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha mutaxassis deganidir. Shuning uchun, havo kemasiga chiqqaningizda parvozingiz ishonchli qo‘llarda ekanligiga amin bo‘ling.

*Aziz ayollar, o‘z go‘zalligingiz va donoligingiz bilan atrofingizdagilar qalbini zabt etishda davom eting. Esingizda bo‘lsin, agarda siz o‘zingizni boringizcha qabul qilib sevsangiz sizga teng keladigani topilmaydi!*

Моя работа – образ жизни. Почувствовав однажды, что такое полёт, очень сложно жить без этого ощущения. Слышали ли вы о понятии «универсальный солдат»? Это про нас! Каждый бортпроводник: спасатель, врач, психолог, лингвист, специалист по сервису и менеджер. Поэтому, заходя в самолёт, будьте уверены, что вы в надёжных руках.

*Дорогие женщины, продолжайте и дальше завоёвывать сердца окружающих красотой и мудростью. Помните, что вам нет равных, если осознаете свою ценность и полюбите себя такой, какая вы есть!*



## Istora Tashpulatova
chiptalar zali kassiri

## Истора Ташпулатова
кассир билетного зала

**Uzbekistan Airways Sales** | **Uzbekistan Airways Sales**

O‘n yillik ish faoliyatim davomida ziddiyatli vaziyatlarga diplomatik tarzda yondashish, tezkorlik bilan harakat qilish va mas’uliyatli bo‘lishni o‘rgandim. Yo‘lovchilar ko‘pincha sabrsiz bo‘lishadi, kutishni xohlashmaydi, ish paytida aviakassirlarni shoshiltirishadi, lekin men buni odatiy hol deb qabul qilaman. Biz jadal rivojlanayotgan dunyoda yashayapmiz va har bir daqiqa qadrli.

*Betakror va go‘zal ayollar, ko‘zlaringiz doimo baxtdan porlashini tilayman. Orzularingiz ushalib, yutuqlaringiz ilhom manbaingizga aylansin. Siz buyuk ishlarga qodirsiz va o‘ylagan barcha ezgu niyatlaringizga erisha olasiz. Seving va sevilib yashang!*

За десять лет работы научилась относиться к разрешению спорных ситуаций с дипломатичностью, действовать оперативно и быть пунктуальной. Нередко пассажиры проявляют нетерпение, торопят авиакассиров во время работы, но я воспринимаю это как обыденное явление. Мы живём в бурно развивающемся мире, где дорога каждая минута.

*Неповторимые и прекрасные женщины, желаю, чтобы ваши глаза всегда сияли от счастья. Пусть ваши мечты сбываются, а достижения становятся источником вдохновения. Вы способны на великие дела и можете достичь всего, что задумаете. Любите и будьте любимыми!*

## Anna Makarova
**tezkor dispetcherlik bo‘limining katta dispetcheri**



## Анна Макарова
**старший диспетчер оперативно-диспетчерской службы**

**«Ketring» MCHJ** | **ООО «Кетринг»**

Mening asosiy vazifam havo kemalariga parvozdan oldin oziq-ovqat yuklash ishlarini tashkil etishdan iborat. Kasbim tufayli har qanday muammoga yashin tezligida yechim topish mahoratini egalladim. Ishimni juda yaxshi ko‘raman. Bu uyingizga ketishga shoshilmaydigan, o‘zingizni kerakli his qiladigan hamda qiyinchiliklardan qo‘rqmaydigan va har qanday vazifani mamnuniyat bilan bajaradigan joy.

Моя основная задача – организация работы по загрузке бортового питания на самолет. Благодаря своей профессии освоила навык молниеносной реакции. Очень люблю свою работу. Это то место, где приятно задержаться, где ты чувствуешь себя полезным, а также не боишься сложностей и с радостью берешься за любое дело.

*Aziz ayollar, sizga har doim baxtli, sevimli va go‘zal bo‘lib yurishni tilayman! Hayotingiz rang-barang voqealar va faqat ijobiy taassurotlar bilan to‘lsin.*

*Желаем вам, милые дамы, всегда быть счастливыми, любимыми и красивыми! Пусть жизнь будет наполнена яркими красками и только положительными впечатлениями.*

## Dilorom Valiyeva
**oshpaz**



## Дилором Валиева
**повар**

**«Ketring» MCHJ** | **ООО «Кетринг»**

Kasbimdan nihoyatda faxrlanaman. Butun kunni tik oyoqda o‘tkazishimizga va katta hajmli ishlarni bajarishimizga to‘g‘ri keladi, ammo yo‘lovchilarning taomlarimiz haqida yaxshi fikrlar bildirishganlarini eshitsam charchoqlarim tarqab ketadi.

Невероятно горжусь своей работой. Приходится проводить весь день на ногах и справляться с большим производственным объёмом работы, но при виде восхищённых отзывов от пассажиров усталость как рукой снимает.

## Eleonora Buchintseva
koordinator



## Элеонора Бучинцева
координатор

**Islom Karimov nomidagi Toshkent xalqaro aeroportidagi vakolatxona**

**Представительство в Международном аэропорту «Ташкент» им. Ислама Каримова**

Mening vazifalarimga yo‘lovchilarning parvoz bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarini hal qilish kiradi. Aynan men va hamkasblarim ularning aeroportdagi vaqtlarini imkon qadar qulay o‘tishiga harakat qilamiz. Bu ish sabr, sadoqat va stressga chidamlilikni talab qiladi. Yaxshiyamki, biz ayollarga tabiatan bu fazilatlarning barchasi berilgan.

*Sakkizinchi mart ayollarning orzulari ushaladigan yagona kun bo‘lib qolmasin, bunday kunlar ko‘p bo‘lsin. Ushbu kunda yaqinlaringiz, shuningdek, siz uchun muhim va aziz bo‘lgan insonlaringiz sizni e’tibordan chetda qoldirmasliklarini tilayman. Sizni ko‘klamning eng iliq va yorqin bayrami bilan tabriklayman!*

В мои обязанности входит урегулирование вопросов пассажиров, связанных с перелётом. Именно мы с коллегами делаем их пребывание на территории аэропорта максимально комфортным. В этой работе необходимы выдержка, лояльность и стрессоустойчивость. К счастью, мы, женщины, во многом от природы наделены всеми этими качествами.

*Пусть Восьмое марта станет далеко не единственным днём в году, когда сбываются женские мечты. Желаю, чтобы в этот день вас не обошли вниманием близкие люди, а также те, кто важен и дорог сердцу. Поздравляю со светлым праздником весны и тепла!*



*Abror Abduvaitov*
*Аброр Абдуваитов*

*Foto: Abdulaziz Xalilov*
*Фото: Абдулазиз Халилов*



# BORTDAGI XAVFSIZLIK HAQIDAGI MOʻJIZA

# Magic About Safety on Board

# Волшебно о безопасности на борту

Dunyodagi barcha aviakompaniyalar parvoz oldidan yoʻlovchilarga favqulodda vaziyat yuzaga kelganda bortda harakatlanish qoidalari boʻyicha koʻrsatmalar beradi. Busiz dunyodagi bironta havo kemasi uchmaydi. Harakatlanish qoidalari bortkuzatuvchilar tomonidan koʻrsatib berilishi mumkin, ulardan biri maʼlumotni oʻqib tursa, ikkinchisi koʻrsatib beradi: favqulodda chiqish yoʻnalishlari; xavfsizlik kamarlaridan, kislorodli niqoblar va shishiriladigan qutqaruv kamzullardan qanday qilib toʻgʻri foydalanish shular jumlasidandir. Videomonitorlar bilan jihozlangan havo kemalarida yoʻlovchilar qoidalar bilan vizual tanishadilar va bu yerda endi fantaziya bilan ishlangan video namoyish etiladi.

All airlines in the world instruct passengers before the flight on the rules of conduct on board in the event of an emergency. Without this, not a single plane in the world takes off. The safety demonstration can be carried out manually by flight attendants when one reads out the information and the other shows directions to emergency exits, how to use seat belts correctly, oxygen masks, and inflatable vests.
In cabins with video monitors, passengers often get acquainted with the rules through a safety video, and there is no limit for air carriers to their imagination when creating a video.

Все авиакомпании мира инструктируют пассажиров перед началом полёта о правилах поведения на борту в случае аварийной ситуации. Без этого ни один самолёт в мире не взлетит. Демонстрация может производиться бортпроводниками вручную, когда один зачитывает информацию, а другой показывает: направления аварийных выходов; как правильно пользоваться ремнями безопасности; кислородными масками и надувными жилетами. В салонах с видеомониторами пассажиры знакомятся с правилами через визуальный ряд, и тут для авиаперевозчиков нет предела для фантазии при создании ролика.

*Uzbekistan Airways bortida xavfsizlik boʻyicha yoʻriqnomalar aks ettirilgan videorolik dunyodagi eng taniqli videolardan biri hisoblanadi. Har bir yoʻlovchining parvozi oʻtmish va kelajakni bir biri bilan bogʻlovchi ertak bilan boshlanadi.*

*The video with safety instructions on board Uzbekistan Airways is one of the most recognizable in the world. Each passenger's flight begins with a fairy tale connecting the past and the future.*

*Видеоролик с инструкцией по безопасности на борту Uzbekistan Airways – один из самых узнаваемых в мире. Каждый полёт пассажиров начинается с волшебной сказки, связывающей прошлое и будущее.*



**Uzbekistan Airways uchun videorolik yaratishda quyidagi insonlar ter to'kishgan:**

**Rejissyor, ssenariy muallifi**
Habibulla Nabiyev

**Kompozitorlar**
DJ Piligrim, Jasur Badalbayev
**Ovoz rejissyori**
Jasur Abdurahmonov
**Sharq torli asboblari**
Farhod Mirzayev
**Montaj ustasi**
Bahodir Qosimov
**Rassomlar**
Baxriddin Shamsumatov, Jamoliddin Ravshanov

**Kostyum dizaynerlari**
Elsevar Isxakova, Malika Joraboyeva
**Operator, post-prodakshn**
Sarvar Sobirov
**Pardoz ustasi**
Yekaterina Seryakova

**Rejissyor yordamchilari:**
Barot Rahmatov, A'lo Surataliyev
**Film direktorlari:**
Kamoliddin Hamrayev, Shukurillo Shohidov
**Dron operatori**
Nodir Abdullayev

**Aktyorlar:**

**Bortkuzatuvchi** - Anastasiya Kovba
**Shoh** - Saddam Matjanov
**Karvonboshi** – Akromjon Turg'unov
**Fotosuratchi** – Baxtiyor Valiev
**Qo'riqchi** - Shuhrat Alayarov
**Bosh qo'mondonlar** – Ruslan Nuriddinov, Firdavs Uzoqov

**The following people worked on creating the safety video for Uzbekistan Airways:**

**Director, screenwriter**
Khabibulla Nabiev

**Composers**
DJ Piligrim, Jasur Badalbaev
**Sound engineer**
Jasur Abdurakhmanov
**Oriental string instruments** Farkhod Mirzaev
**Editing**
Bakhodir Kasimov
**Artists**
Bakhriddin Shamsumatov, Zhamoliddin Ravshanov

**Costume designers**
Elsevar Iskhakova, Malika Jorabaeva
**Cinematographer, post-production**
Sarvar Sobirov
**Make-up artis**
Ekaterina Seryakova

**Assistant directors**
Barot Rakhmatov, Alo Surataliev
**Directors of the film**
Kamoliddin Khamraev, Shukurillo Shokhidov
**Drone operator**
Nodir Abdullaev

**Actors:**

**Flight attendant** – Anastasia Kovba
**Shah (King)** – Saddam Matjanov
**Head of caravan** – Akramjon Turgunov
**Photographer** – Bakhtiyor Valiev
**Sentinel** – Shukhrat Allayarov
**Commanders-in-Chief** – Ruslan Nuriddinov, Firdavs Uzakov

**Над созданием видеоролика для Uzbekistan Airways работали:**

**Режиссёр, сценарист**
Хабибулла Набиев

**Композиторы**
DJ Piligrim, Жасур Бадалбаев
**Звукорежиссёр**
Джасур Абдурахманов
**Восточные струнные инструменты**
Фарход Мирзаев
**Монтаж**
Баходир Касимов
**Художники**
Бахриддин Шамсуматов, Жамолиддин Равшанов

**Художники по костюмам**
Элсевар Исхакова, Малика Жорабаева
**Оператор, постпродакшн**
Сарвар Собиров
**Художник по гриму**
Екатерина Серякова

**Ассистенты режиссёра**
Барот Рахматов, Аъло Сураталиев
**Директора картины**
Камолиддин Хамраев, Шукурилло Шохидов
**Оператор дронов**
Нодир Абдуллаев

**Актёры:**

**Бортпроводник** – Анастасия Ковба
**Шах** – Саддам Матжанов
**Караван-боши** – Акромжон Тургунов
**Фотограф** – Бахтиёр Валиев
**Дозорный** – Шухрат Алаяров
**Главнокомандующие** – Руслан Нуриддинов, Фирдавс Узаков



# Habibulla Nabiyev

**rejissyor, ssenariy muallifi**

## Khabibulla Nabiev, director, screenwriter

Хабибулла Набиев, режиссёр, сценарист

Tasvirga olish guruhining maqsadi O‘zbekistonning boy tarixi va madaniyatini aks ettirish edi. Shunday qilish kerak ediki, Uzbekistan Airways’ning parvozdan oldingi xavfsizlik yo‘riqnomasi dunyoda mavjud bo‘lgan boshqa aviakompaniyalarnikidan ajralib tursin. Suratga olish ishlari dekabr oyining boshida, to‘qqiz kun ichida bo‘lib o‘tdi. Qorli ob-havodan “o‘zib ketishimiz” va o‘tayotgan yilning so‘nggi quyoshli kunlarida suratga olishga ulgurib qolishimiz kerak edi. Havo juda sovuq. Hattoki ba’zi kadrlarda bosh rolni ijro etayotgan aktrisamizning burni va yanoqlari qizarib qolganiga guvoh bo‘lishingiz mumkin.

The film crew had a goal – to show the rich history and culture of Uzbekistan. And to do this in such a way that the pre-flight briefing of Uzbekistan Airways was favorably different from others existing in the world. Filming took place in early December over nine days. We had to “outrun” the snowy weather and build a route in such a way as to take pictures on the last sunny days of the outgoing year. It was very cold. In some scenes, you can even notice how the leading lady's nose and cheeks turn red from the cold.

Перед съёмочной командой стояла цель: отразить богатейшую историю и культуру Узбекистана. И сделать это так, чтобы предполётный инструктаж Uzbekistan Airways выгодно отличался от других, существующих в мире. Съёмки проходили в начале декабря в течение девяти дней. Нам приходилось «обгонять» снежную погоду и выстраивать маршрут так, чтобы сделать кадры в последние солнечные дни уходящего года. Было очень холодно. В некоторых сценах вы даже можете заметить, как у исполнительницы главной роли от мороза краснеют нос и щеки.








omegawatches.com

## SPEEDMASTER MOONWATCH

In July 1969, the Speedmaster earned its nickname when it became the first watch worn on the moon, and in 1970, it went above all expectations when it helped guide the crew of the crippled Apollo 13 mission back to safety. Updated today as a Co-Axial Master Chronometer, the iconic Moonwatch is now tested and certified at the highest level by the Swiss Federal Institute of Metrology (METAS) – which guarantees more accuracy, reliability and supreme resistance to magnetism.

Ω
OMEGA

---

Boutique «GENEVE»
Mustaqillik shoh ko□chasi, 20.
Tel: 71 237 38 63.
«ELERON KA» MChJ xizmat ko□rsatadi